



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 446 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ihombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	




Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi 191 Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li
	Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli 196 Salomova Nargiza Sattorovna
	Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili..... 200 Shukurova Nargiza Ikramovna
	Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish 205 Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi
	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish... 210 Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari 216 Uralova Nurxon Maxadovna
	Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni..... 220 Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna
	Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari 223 Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi
	Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology 226 Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati 229 Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich
	Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи 233 Маматкулов Равшанжон Солижонович
	Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" 237 Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек
	Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 240 Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi
	Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions 248 Gulnoza Aslamovna Azimkulova
	Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish 251 Ergasheva Nigora G'ayratovna
	Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education 259 Khudoyarova Ziyoda Maratovna
	Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari..... 264 Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi
	Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari..... 269 Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li
	Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi 273 Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi
	Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 th -Century English and Karakalpak Works)..... 279 Najimova Perizad Arslanbay qizi
	Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 283 Shodiyeva Charos Ravshan qizi
	Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari 286 Xaytova Farida Kuchkarovna



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari	319
<i>Omonova Sarvinoz</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otobek Tualovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы	337
<i>Абдусаламова Адиба Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком	340
<i>Касимов А. Б.</i>	
Basketbolchilarning jamoaviy texnik harakatlarini takomillashtirish.....	344
<i>Mirzayev Xusniddin Abdusattor o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda zamonaviy o'qitish usullari.....	348
<i>Alimjanova Matlyuba Yunusovna</i>	
Socio-Psychological Mechanisms of Child Protection From Violence: International Experience and the Practice of Uzbekistan.....	351
<i>Ganiev Maksudjon Najim ugli</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	357
<i>Gafforova Sarvinoz Asrorovna</i>	
Chap qo'li yetakchi o'quvchilarni o'qitishda neyropedagogik yondashuvning pedagogik mohiyati va asosiy tushunchalari	361
<i>Rashidov Abduaziz Abduvali o'g'li</i>	
XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakatining Qashqadaryoga kirib kelishi va uning ta'lim tizimiga oid tarixiy-pedagogik ildizlari	369
<i>Sulaymonova Nilufar O'tkir qizi</i>	
Снижение коммуникативной тревожности студентов-филологов средствами театральных упражнений в обучении немецкому языку	372
<i>Галиуллов Марат Анварович</i>	
Педагогические условия совершенствования дидактических моделей обучения студентов в цифровой образовательной среде	376
<i>Рахматова Нигина Исломовна</i>	

O'smirlarda internet tobeligi namoyon bo'lishining shaxs xususiyatlariga ta'siri.....	380
Djuxonova Noxida Xayotjonovna	
Tarix darslarida "Educaplay" interaktiv o'yinlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	384
Eshankulova Ma'mura Davlatovna	
Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini ta'minlash: falsafiy tahlil va milliy dastur istiqbollari	388
Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna	
"Neyropsycore / Bo'g'irsoq" kompyuterlashtirilgan dasturi asosida 6-9 yoshli bolalarda eshituv-so'z-mantiqiy xotirani rivojlantirish samaradorligi.....	392
Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna	
Texnika oliy ta'limida o'qitishning metodologiyasi: zamonaviy yondashuvlar va samarali pedagogik texnologiyalar	395
Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li	
Raqamli ta'limda fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli	401
Sh. A. Saidova, J. J. Kamolov	
Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni.....	410
Jo'rayeva Zuhra Kamoliddin qizi	
Integrativ o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni.....	414
Kamola U. Mirzayeva	
Oliy ta'lim tizimida dasturiy-konseptual modellashtirishning epistemologik va metodologik asoslari	419
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	
Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy pedagogikaga joriy etish shart-sharoitlari.....	423
Nabiyeva Aziza Komil qizi	
Parsial o'quv dasturlarining pedagogik mazmuni, tuzilishi va boshlang'ich ta'lim metodikasidagi nazariy asoslari	429
Saydillayeva Mehrnaz Bahodir qizi	
FabLab va MakerSpace texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish metodikasi	434
Xudaykulova Saida Zakirovna	
The Role of Qualified Teachers in Students' Career Choices.....	441
Karimov Dostonjon Karimovich	



YANGI O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: FALSAFIY TAHLIL VA MILLIY DASTUR ISTIQBOLLARI

Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Namangan filiali "Pedagogika va psixologiya"

kafedrası katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-8495-7385

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy faol subyektlar sifatida milliy taraqqiyot dasturlariga integratsiya qilishning zamonaviy tendensiyalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Muallif ijtimoiy davlat konsepsiyasining nazariy-falsafiy asoslari, konstitutsiyaviy islohotlar hamda amaliy siyosatdagi transformatsiyalarni o'rganish orqali nogironlik masalasiga nisbatan "ijtimoiy yuk" yondashuvidan "inson salohiyati va imkoniyatlari" konsepsiyasiga o'tish jarayonini asoslaydi. Tadqiqotda ushbu transformatsiyaning mantiqiy izchilligi, mavjud institutsional va ijtimoiy to'siqlar hamda ularni bartaraf etishning falsafiy-metodologik asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy falsafa, Yangi O'zbekiston, nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy faollik, inklyuziya, ijtimoiy davlat, ijtimoiy adolat, inson qadri, milliy taraqqiyot.

Abstract: This article analyzes the contemporary trends of integrating persons with disabilities into the national development programs of New Uzbekistan as socially active participants from a socio-philosophical perspective. The author examines the philosophical foundations of the social state concept, constitutional reforms, and transformations in public policy, substantiating the shift from perceiving disability as a "social burden" toward recognizing human potential and individual capabilities. The study reveals the logical consistency of this transformation, identifies existing institutional and social barriers, and highlights the philosophical and methodological foundations for overcoming them.

Key words: social philosophy, New Uzbekistan, persons with disabilities, social activity, inclusion, social state, social justice, human dignity, national development.

Аннотация: В статье с социально-философских позиций анализируются современные тенденции интеграции лиц с инвалидностью в программы национального развития Нового Узбекистана как социально активных субъектов общественной жизни. Автор исследует философско-теоретические основы концепции социального государства, институциональные реформы и трансформации государственной политики, обосновывая переход от восприятия инвалидности как "социального бремени" к признанию человеческого потенциала и возможностей личности. В исследовании раскрываются логическая последовательность данного процесса, существующие институциональные и социальные барьеры, а также философско-методологические основы их преодоления.

Ключевые слова: социальная философия, Новый Узбекистан, лица с инвалидностью, социальная активность, инклюзия, социальное государство, социальная справедливость, человеческое достоинство, национальное развитие.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida konstitutsiyaviy mustahkamlanishi va inson qadrini oliy qadriyat deb e'lon qilishi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Yangi O'zbekiston strategiyasida inson ijtimoiy tizimning markaziy subyekt sifatida e'tirof etilmoqda. Bu konsepsiya nogironligi bo'lgan shaxslarga munosabatni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi: ular endi jamiyat uchun "yuk" yoki "mijoz" emas, balki o'z salohiyatiga ega bo'lgan, jamiyat hayotida faol ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan teng huquqli fuqarolar sifatida qaralishi kerak.

Tadqiqot obyekti - Yangi O'zbekiston ijtimoiy falsafasida nogironligi bo'lgan shaxslarning o'rni va roli.

Tadqiqot predmeti - nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy faol subyekt sifatida milliy dasturga kiritish tendensiyalari.



Tadqiqot maqsadi - ushbu tendensiyalarning falsafiy asoslari, amaliy ko'rinishlari va kelgusi istiqbollarini tahlil qilish.

Tadqiqot vazifalari:

- ijtimoiy davlat konsepsiyasining falsafiy negizlarini ochib berish;
- qonunchilik va amaliy siyosatdagi paradigma o'zgarishini tahlil qilish;
- mavjud to'siqlarni (ijtimoiy stereotiplar, institutsional kamchiliklar) falsafiy jihatdan baholash;
- amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

O'zbekistonda ijtimoiy davlat konsepsiyasi turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda nogironlik tushunchasi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy hodisa sifatida ham talqin qilinmoqda. Bu yondashuv inklyuziv jamiyat barpo etishning nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonning 2021-yilda BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilishi ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni qabul qilishning muhim bosqichi bo'ldi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nogironlik masalasiga bo'lgan yondashuv "tibbiy model"dan "ijtimoiy model"ga o'tmoqda. Bunda asosiy e'tibor nogiron shaxsning cheklovlariga emas, balki jamiyatdagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tizimli-tahlil va dialektik usullar qo'llanildi. Qiyosiy usul orqali O'zbekiston ijtimoiy siyosatining turli davrlari (mustaqillikning dastlabki yillari, 2017-yildan keyingi islohotlar va 2023-yilgi Konstitutsiyadan keyingi bosqich) o'zaro solishtirildi. Tizimli usul yordamida ijtimoiy falsafa, huquq va amaliy siyosatning o'zaro aloqadorligi tahlil qilindi. Dialektik usul tendensiyalarning rivojlanish mantig'i hamda ichki ziddiyatlarini ochib berishga xizmat qildi.

Falsafiy-analitik metod orqali nogironlik tushunchasining ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlari o'rganildi. Normativ-huquqiy tahlil metodi yordamida O'zbekiston Respublikasida nogironlar huquqlarini himoya qilishga oid qabul qilingan qonunlar va farmonlar tahlil qilinib, ularning xalqaro standartlarga mosligi baholandi.

Paradigma siljishi: "ijtimoiy himoya"dan "ijtimoiy faollik"ka. O'zbekistonning nogironlik siyosatida tub paradigma o'zgarishi kuzatilmoqda. Ilgari asosiy e'tibor nogironlarni "himoya qilish" va ularga "yordam" ko'rsatishga (moddiy nafaqalar, protezlar, pansionatlar) qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda asosiy maqsad ularni jamiyatning faol va teng huquqli a'zolariga aylantirishdan iboratdir. Bu, avvalo, 2023-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekistonning "ijtimoiy davlat" ekanligi belgilanishi bilan mustahkamlandi.

Zamonaviy falsafiy yondashuv nogironlikni faqat biologik yoki individual cheklov sifatida emas, balki ijtimoiy muammo sifatida talqin qiladi.

Milliy dastur va strategik hujjatlardagi aks etishi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi hamda unga muvofiq qabul qilingan hujjatlar nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini kafolatlash tizimini tubdan o'zgartirmoqda. 2020-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, 2021-yilda esa BMTning tegishli Konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi bu yo'nalishdagi muhim qadamlar bo'ldi.

2023-yilgi Prezident farmoni bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilib, "Inson" markazlari orqali ijtimoiy xizmatlar mahallalargacha yetkazildi. Natijada 102 turdagi ijtimoiy xizmat mahallalarda yo'lga qo'yildi. Shuningdek, "Inson" markazlariga 2025-yilda 1 million 787 ming murojaat qabul qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bandlik va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Biroq mavjud statistik ma'lumotlar bu borada jiddiy muammolar saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi 755 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan shaxs yashaydi va ular orasida bandlik darajasi atigi 3,7 foizni tashkil qiladi. Tadbirkorlar tomonidan 40 ming nafar nogiron fuqaro ishga joylashtirilgani haqidagi rasmiy ma'lumotlar ekspertlar tomonidan ehtiyotkorlik bilan qabul qilinmoqda, chunki bunday ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra bir yil ichida erishish qiyin bo'lgan natija hisoblanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning qariyb 34 foizi sanoat, 15,4 foizi ta'lim va 11,7 foizi sog'liqni saqlash sohalarida mehnat qiladi.

Inklyuziv ta'lim tizimining rivoji. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. 2020-yilda "2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da

inklyuziv ta'lim asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi, 2022-yilda esa "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini" tasdiqlandi. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilish hamda 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun inklyuziv ta'limning huquqiy asosini mustahkamladi. Biroq amaliyotda jiddiy muammolar mavjud: ko'plab maktablarda panduslar, liftlar va moslashtirilgan sinfxonalar yetishmaydi; maxsus pedagogika, defektologiya va logopediya bo'yicha kadrlar tanqisligi saqlanib qolmoqda; o'quv dasturlari hamda darsliklar imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlariga to'liq moslashtirilmagan.

Ijtimoiy mentalitet va falsafiy muammolar. Qonunchilik va institutsional o'zgarishlar bilan bir qatorda jamiyat ongidagi o'zgarishlar nisbatan sekin kechmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvidagi asosiy to'siqlar faqat jismoniy infratuzilma bilan bog'liq emas, balki ijtimoiy munosabatlar va jamiyatda mavjud qarashlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ko'pchilikda hali-hanuz inklyuziv ta'limga nisbatan salbiy stereotiplar saqlanib qolmoqda. Bu esa "ijtimoiy faollik" falsafasini amalga oshirishdagi asosiy to'siq sifatida ijtimoiy stereotiplar va kamsitishlarning mavjudligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslar turli stereotiplar va noto'g'ri qarashlar asosida baholanishi ularning ijtimoiy transformatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy faol subyekt sifatida milliy dasturga kiritish tendensiyasi izchil va falsafiy jihatdan asoslangan xususiyatga ega. Bu jarayon "ijtimoiy himoya" paradigmasidan "inson salohiyatini ro'yobga chiqarish" paradigmasiga o'tishni ifodalaydi.

Tendensiyalar:

Konstitutsiyaviy va huquqiy asosning mustahkamlanishi. Ijtimoiy davlat tamoyili hamda nogironlar huquqlari konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. O'zbekiston 2021-yilda BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qildi.

1. **Institutsional islohotlar.** Ijtimoiy himoya tizimi markazlashtirilgan modeldan mahalliy, xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan modelga ("Inson" markazlari, vaucher tizimi) o'zgartirilmoqda. Respublikadagi 208 ta tuman va shaharda "Inson" markazlari tashkil etilgan.
2. **Iqtisodiy faollashtirish.** Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirilmoqda. Biroq bandlik darajasi atigi 3,7 foizni tashkil etib, bu sohada jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda.
3. **Inklyuziv ta'lim.** Maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun umumta'lim muhitini yaratish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingan.

Takliflar:

1. **Ijtimoiy stereotiplar bilan kurashish strategiyasi.** Ommaviy axborot vositalari orqali nogironlikka nisbatan munosabatni o'zgartirish, "kuch va imkoniyat" ritorikasini keng targ'ib etishga qaratilgan maxsus ma'rifiy dasturlar ishlab chiqilsin. Jamiyatda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish zarur.
2. **Mehnat bozorida "to'siqsiz muhit" yaratish.** Ish beruvchilarni nafaqat subsidiyalari, balki infratuzilmani moslashtirish va ish o'rinlarini yaratish bo'yicha maslahat hamda texnik yordam bilan ta'minlash tizimi yo'lga qo'yilsin. Nogironligi bo'lgan shaxslarni mavjud ish o'rinlari va imtiyozlar to'g'risida xabardor qilish mexanizmlari takomillashtirilsin.
3. **Ijtimoiy ishchi va psixologlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.** Oliy ta'lim muassasalarida "Ijtimoiy ish" yo'nalishi bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilsin. Maxsus pedagogika, defektologiya va logopediya bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimi kengaytirilsin.
4. **"Faollik indeksi"ni joriy etish.** Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim, bandlik va ijtimoiy hayotdagi ishtirok darajasini o'lchaydigan milliy indeks ishlab chiqilib, davlat siyosatining samaradorligi muntazam baholab borilsin.
5. **Infratuzilmani to'liq moslashtirish.** Barcha davlat muassasalari, jamoat transporti va ijtimoiy obyektlarni nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin harakatlanishiga to'liq moslashtirish bo'yicha aniq muddatli dastur qabul qilinsin.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligi Yangi O'zbekistonning ijtimoiy adolat va inson qadr-qimmatini falsafasining muhim mezoniga aylanmoqda. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati nafaqat davlat siyosatining izchilligiga, balki jamiyat ongida yuz beradigan chuqur o'zgarishlarga ham bevosita bog'liqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anhor.uz. "O'zbekiston tadbirkorlari nogironligi bo'lgan 40 ming kishini ish bilan ta'minladimi?", 2025-yil 20-yanvar.
2. Do'rmanova s.a. "O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lim". наука и технология в современном мире, 2025, 4(15), 94-101.
3. NamDu ilmiy axborotnomasi. "yangi O'zbekistonda nogiron shaxslarning ijtimoiy inklyuziyasi falsafiy tahlili", 2024-yil 12-son.
4. Makroiqtisodiyot va hududiy tadqiqotlar instituti (mhti) ma'lumotlari. "O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning bandlik darajasi", 2024-yil.
5. Jurayeva M.M. "Nogironlik va ijtimoiy transformatsiya". O'zbekiston falsafa jurnali, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonuni, 2021-yil 7-iyun, o'rq-695-son.
7. O'zbekiston respublikasi hukumat portali. "O'zbekistonda markaziy osiyo uchun noyob ijtimoiy himoya tizimi shakllandi", 2025-yil 18-iyul.
8. Jurayeva, M. M. (2026, april). social activism of persons with disabilities in the new Uzbekistan: philosophical foundations and practical processes. in international conference platform (no. 4, pp. 60-72).
9. Juraeva, M. M. (2024). Integration of persons with disabilities into the flow of social relations in the conditions of new Uzbekistan. Journal of modern educational achievements, 10(10), 283-286.
10. Jurayeva, M. M. (2026, april). The issue of persons with disabilities from the point of view of the concept of human dignity. in International conference platform (no. 4, pp. 53-59).
11. Muhaydinovna, J. M. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda kooperativ o'qitish va jamoaviy o'yinlar texnologiyasining ro'li. Tadqiqotlar, 75(3), 118-123.
12. Muxaydinovna, J. M. (2026). Nosog'lom ijtimoiy muhitning sog'lom bolalar ijtimoiylashuviga salbiy ta'siri. ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 61(1), 139-148.
13. Muxaydinovna, J. M. (2025). Nutqiy rivojlanishida kechikkan bolalar bilan ishlashda multimodal va interfaol ta'lim texnologiyalari. Tadqiqotlar, 74(2), 303-306.
14. Juraeva, M. (2024). persons with disabilities and its social analysis in new Uzbekistan. confrencea, 2, 38-43.
15. Muxaydinovna, J. M. (2025). Sensor-integratsion yondashuv va multimodal metodlar orqali nutqiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash. Образование наука и инновационные идеи в мире, 82(4), 140-147.
16. Jurayeva, M. Q., & Jurazoda, M. I. Q. (2022). Nutq texnikasi modulini o'qitishda innovatsion yondashuv metodlari. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 2(3), 403-408.
17. Jurayeva, M., & Polatova, R. (2024). Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarini maktabgacha ta'limga moslashtirishda kreativ yondashuv. Вестник магистратуры, (6-1 (153)), 18-20.
18. Safarboyeva, S. B. Q. (2026). O'smirlarda uchraydigan psixologik muammolar. Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi, (5), 109-111.
19. Kayumov, B. Z. O., & Kodirova, Z. S. Q. (2026). The influence of the virtual world on the formation of destructive behavior in adolescents. Science and Education, 7(3), 426-429.
20. Kayumov, B. Z. O., & Shokirova, D. (2026, April). Study Of Human Mental Activity. //In International Conference Platform (No. 4, pp. 112-115).
21. Kayumov, B. Z. O., & Nurmanova, B. B. Q. (2026). Factors and causes of behavioral deviation in adolescents. Science and Education, 7(3), 534-537.
22. Kayumov, B. Z. O., & Boyturayeva, N. M. K. (2026). Online psychological consultation service: problems and solutions. Science and Education, 7(3), 527-533.
23. Qayumov, B. Z. O., & Rustamova, D. J. (2026). Causes of deviation in the education of school-age students. Academic Journal of Science, Technology and Education, 2(3), 101-103.
24. Kayumov, B. Z., & Olimjonova, N. S. (2026). The importance of role playing in preschool children. Science and Education, 7(3), 475-480.
25. Yaxyoxonovich, A. U. (2025, December). Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishda tanqidiy fikrlashning roli. In Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus (Vol. 1, No. 1, pp. 1129-1134).
26. Uktamov, M. M. O. (2026). Technologies for educating students using artificial intelligence. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 2(4), 40-43.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.